

“TASDIQLAYMAN”

“UzGasTrade” AJ

Boshqaruv raisi



A. Agzamov

2026-yil 29-yanvar

Toshkent shahri

“UzGasTrade” aksiyadorlik jamiyati ijroiya apparati

navbatdagi yig'ilishining

6 - son BAYONI

Raislik qiluvchi: –

A. Agzamov - “UzGasTrade” AJ Boshqaruv raisi

Ishtirok etdilar: –

Boshqaruv raisining birinchi o'rinbosari
R. Tulyaganov va Jamiyatning tarkibiy bo'linmalari
boshliqlari (ro'yxat bo'yicha)

KUN TARTIBI

“UzGasTrade” aksiyadorlik jamiyatida korrupsiyaning oldini olish, korrupsiyaga qarshi kuchli nazorat o'rnatish masalasi hamda amalga oshirilishi lozim bo'lgan ustuvor vazifalar to'g'risida

(A. Agzamov, R. Tulyaganov, S. Qurbonov, R. Inogamov, E. Aliyev, D. Valter, Sh. Yusupov, A. Erakov, B. Nurmatov, A. Raimjonov, J. Rabbinov, A. Niyazmetov, S. To'ychiyev....)

Jamiyat ijroiya apparatining navbatdagi yig'ilishi Boshqaruv raisi A. Agzamov tomonidan kirish so'zi bilan ochilib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2025-yil 26-dekabr kuni Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga yo'llagan **Murojaatnomasida** Korrupsiya – davlat taraqqiyotiga to'siq bo'ladigan, adolat va qonun ustuvorligini izdan chiqaradigan, jamiyatda ishonch muhitini zaiflashtiradigan eng jiddiy tahdid ekanligi, Korrupsiyaga yo'l qo'yish esa – islohotlarimizga xiyonat ekanligi, bu illatga qarshi kurashish bo'yicha 2026-yilda “favqulodda holat” e'lon qilinganligi ta'kidlandi.

Davlatimiz rahbari tomonidan belgilab berilgan ustuvor vazifalar ijrosini **samarali ta'minlash**, Jamiyatda korrupsiyaning **har qanday** ko'rinishlarini oldini olish, korrupsiyaga qarshi **kuchli nazorat o'rnatish**, Jamiyatda amalga oshiriladigan xaridlar, shuningdek boshqa shartnomaviy munosabatlarda **Korrupsiya xavflarini**

oldini olish, Komplayens nazorat bo'limi faoliyatini yanada kuchaytirish bo'yicha Boshqaruv raisi tomonidan tegishli topshiriqlar va ko'rsatmalar berildi.

Shundan so'ng, Jamiyat oldida turgan muhim vazifalar ijrosi, mavjud muammolar va ularning yechimi bo'yicha takliflar ko'rib chiqilib, tegishli mas'ullarga zarur topshiriqlar berildi va yig'ilish yakuni bilan,

QAROR QILINDI:

1. Komplayens nazorat bo'limi (S. Mirzamoydinov) korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha 2026-yilda "favqulodda holat" e'lon qilinganligini inobatga olib:

a) Jamiyatda korrupsiyaning oldini olish bo'yicha **barcha zarur choralarni ko'rsin** va korrupsiya xavfi vujudga kelgan taqdirda **shu kunning o'zida** Boshqaruv raisiga axborot kiritsin;

b) Jamiyatda korrupsiyaning oldini olish bo'yicha **doimiy profilaktik tadbirlarni amalga oshirib borsin**;

d) Jamiyatda amalga oshiriladigan xaridlarini amaldagi Qonunchilik hujjatlariga asosan **shaffof** olib borilishini **qat'iy nazoratga olsin**;

e) Jamiyatda kontragentlar bilan tuziladigan shartnomalarni **korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazib borsin**.

2. Moliyaviy faoliyatni muvofiqlashtirish boshqarmasi (Sh. Yusupov), Tabiiy gazni xarid qilish boshqarmasi (D. Valter), Tabiiy gazni sotish boshqarmasi (E. Aliyev), Strategiya va hududiy bo'linmalar faoliyatini muvofiqlashtirish departamenti (F. Toshpo'latov), Ma'muriy-xo'jalik va moddiy ta'minot bo'limi (S. To'ychiyev) lar Yuridik bo'lim (A. Erakov) bilan birgalikda **bir hafta muddatda** Jamiyat hamkorlari va boshqa kontragentlar bilan tuzilgan barcha shartnomalarni (tegishli asoslovchi hujjatlarning mavjudligi va Qonunchilik talablariga muvofiqligi nuqtayi nazaridan) to'liq inventarizatsiyadan o'tkazib, mavjud holat bo'yicha Boshqaruv raisiga axborot kiritsin.

3. Tabiiy gazni xarid qilish boshqarmasi (D. Valter), Tabiiy gazni sotish boshqarmasi (E. Aliyev), Strategiya va hududiy bo'linmalar faoliyatini muvofiqlashtirish departamenti (F. Toshpo'latov) Jamiyatning hamkorlari bilan tuzilgan shartnomalar bo'yicha barcha majburiyatlarning bajarilishiga, debitor qarzdorliklarni undirilishiga **shaxsan javobgar** ekanligi belgilab qo'yilsin.

4. Moliyaviy faoliyatni muvofiqlashtirish boshqarmasi (Sh. Yusupov) Jamiyatning moliyaviy ahvolini yaxshilash, mavjud muammolar va ularning yechimi masalasida Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan **muntazam, samarali** hamkorlikni yo'lga qo'ysin.

5. Yuridik bo'lim (A. Erakov) "Hududgazta'minot" AJ ning Jamiyat oldidagi qarzdorligi bo'yicha **bir kunlik muddatda** sudga da'vo arizasini kiritsin.

6. *Ichki audit xizmati (F. Xodjayev)* Jamiyatning *Buxgalteriya hisobi bo'limi, Moliyaviy faoliyatni muvofiqlashtirish boshqarmasi, Ma'muriy-xo'jalik va moddiy ta'minot bo'limi* faoliyatlarini **muntazam** o'rganib borsin va aniqlangan kamchiliklar, mavjud risklar to'g'risida Boshqaruv raisiga ma'lumot kiritib borsin.

7. Jamiyatning ASKUG-YUR axborot dasturidan foydalanuvchi tarkibiy bo'linmalari (**E.Aliyev, F.Toshpo'latov, D.Valter, R.Inogamov, S. Safayev**) Tizim koordinatori **Sh.Ulug'ov** bilan hamkorlikda, dasturning bugungi kundagi ishlash holati, mavjud muammolar va takliflar bo'yicha prezentatsiya o'tkazishga puxta tayyorgarlik ko'rsin va **o'n kun muddatda** Boshqaruv raisi huzurida taqdimot o'tkazsin.

8. *Yig'ma tahlil bo'limi (J. Rabbinov)* Jamiyat faoliyatiga oid tegishli yangilangan ma'lumotlarni **har haftaning juma kuni** Boshqaruv raisiga kiritib borsin.

9. *Jamiyatning barcha tarkibiy bo'linmalari boshliqlariga* Mamlakatimiz faoliyatiga doir siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy sohadagi yangiliklar bilan doimiy tanishib borish tavsiya etilsin.

10. *Ijro nazorati va murojaatlar bilan ishlash bo'limi (A. Niyazmetov)* mazkur yig'ilish bayonini tegishli tarkibiy bo'linmalarga yetkazilishini va **R. Tulyaganov** boshchiligidagi, topshiriqlar ijrosi ta'minlanishini qat'iy nazoratga olinsin.